

XORAZMSHOHLAR

Tolibjonov Mag‘rurbek Muhiddin o‘g‘li

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy- gumanitar va san‘at
fakulteti Tarix yo‘nalishi 1- bosqich
102- guruh talabasi*

Annotasiya: *Ushbu maqolada Xorazmshohlar davlatining mo‘g‘ullar bilan olib borgan diplomatik aloqalar, o‘zaro elchilik munosabatlari yoritib o‘tilgan. Chingizxon elchilarining O‘trordagi dahshatli halokati o‘zaro aloqalarning buzilishiga hamda Xorazmshohlar davlatiga mo‘g‘ul bosqinchilarining yurishiga asosiy sabab bo‘lganligi bayon etilgan.*

Abstract: This article highlights the diplomatic relations and mutual diplomatic relations of the Khorezmshah state with the Mongols. It is stated that the terrible death of Genghis Khan's ambassadors in Otrar was the main reason for the breakdown of mutual relations and the march of Mongol invaders to the Khorezmshah state.

Аннотация: В данной статье освещаются дипломатические отношения и взаимные посольские связи государства Хорезмшахов с монголами. Утверждается, что страшная гибель послов Чингисхана в Отрае стала основной причиной разрыва взаимоотношений и похода монгольских захватчиков на государство Хорезмшахов.

Kalit so‘zlar: Xorazmshohlar, Anushteginiylar, Saljuqiylar, Qutbiddin Muhammad, Alovuddin Xorazmshoh, Jaloliddin Manguberdi, Chingizxon, millat

Keywords; Khorezmshahs, Anushteginis, Seljuks, Qutbuddin Muhammad, Alovuddin Khorezmshah, Jalaluddin Manguberdi, Genghis Khan, milla

Ключевые слова: Хорезмшахи, Ануштегини, Сельджуки, Кутбуддин Мухаммад, Аловуддин Хорезмшах, Джалалуддин Мангуберди, Чингисхан, мила

Kirish

XI asr va XII asrning birinchi yarmida Xorazm saljuqiylar davlati (G‘aznaviylar davlati xarobalarida XI asrda tashkil topgan) tarkibiga kirgan. Xorazmning XI asrdagi yuksalishi turkiylar sulolasiga mansub xorazmshohlar siyosati bilan uzviy bog‘liq. Mazkur sulolaga saljuq amirining tashtdori Anushtegin asos solgan. Sulton hammomchilari mahkamasining sardori bo‘lgan Anushtegin Garchoi Malikshoh (1072-1092 yy.) saroyida yuksak martabaga erishgan. U rahbarlik qilgan mahkama zimmasiga Xorazmni boshqarish ham yuklangan. 1077-yilda Malikshoh Anushtegin Garchoini Xorazmga noib etib tayinlaydi va Xorazmda Anushteginlar sulolasi hukmronligi boshlanadi. Anushteginlar turkiylar sulolasidan bo‘lib, o‘sha paytda, Osiyoda hukmronlik qilgan uch buyuk sulola: Anushteginlar, Saljuqiylar va G‘aznaviylar bir negizdan kelib chiqqan. 1097-yilda Anushtegin vafot etgach, Xorazm noibi etib Ekinji ibn Qorachar tayinlanadi. Biroq u o‘sha yili noiblikdan chetlatilib, uning o‘rniga Anushteginning o‘g‘li Qutbiddin Muhammad (1097-1127 yy.) qo‘yiladi. Garchi, u „Xorazmshoh“ unvonini tiklab, shu nom bilan ulug‘lansa ham Saljuqiylarning sadoqatli noibi bo‘lib qoldi. Qayta tiklangan xoramshoh mansabiga sazovor bo‘lgan Anushtegin nabirasi Otsiz

Xorazm mustaqilligi yo‘lida astoydil harakat qilgan. Xorazmshoh Otsiz (1127-1156 yy.) saljuq sultoni Sanjarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borgan. U mug‘ombir diplomat va qat’iy sarkarda bo‘lib, mustaqil tashqi siyosat yuritadi. Chunonchi, u o‘z hukmdori Sanjarning ruxsatisiz qipchoqlar va turkmanlarga qarshi urush boshlaydi. 12-asrning boshida O‘rta Osiyoni sharq tomondan yangi istilochilar – qoraxitoylar bosib oladilar. Sulton Sanjar o‘zining yaqin qarindoshi bo‘lgan samarqandlik qoraxoniylar xoni Mahmudga yordamga keladi. Qoraxitoylarga qarshi Samarqand yaqinida bo‘lib o‘tgan jang Sanjarning to‘la mag‘lubiyati bilan yakunlanadi. Xorazmshoh Otsiz Sanjarning mag‘lubiyatidan ustalik bilan foydalanib 1141-yili Marvni ishg‘ol etadi, 1142-yili esa Nishopurga yaqinlashadi. 1156-yili Otsiz vafot etadi va uning o‘g‘li Elarslon (1156-1172 yy.) xorazmiylar davlatini mustahkamlashni davom ettirib, Dixistonni tevarak-atrofdagi yerlarga qo‘shib oladi. Elarslon o‘ziga voris etib o‘g‘li Sultonshoh Mahmudni (1172-1193) tayinlaydi, biroq to‘ng‘ich o‘g‘li Takash ukasining hokimiyatini tan olmay, unga qarshi kurash boshlaydi. Natijada toju-taxt uchun kurash boshlanadi, bu kurash 21 yil davom etib, unda Takash g‘olib keladi.²³ Uning o‘g‘li Tekesh (1172-1200 yy.) 1187-yili Nishopurni, 1192-yili esa Marvni bosib oladi. 1194-yili g‘arbiy saljuqlar sultonini qaqshatqich mag‘lubiyatga uchratib, Eronning butun sharqiy qismini egallab oladi. 1195-yili Tekesh abbosiy xalifa qo‘shinini tor-mor qilib, Iroqqa bostirib kiradi. O‘z mamlakati hududlarini ikki karra kengaytirgan va qudratli davlat barpo etgan xorazmshoh Tekeshni Xorazmning eng iste‘dodli hukmdori deb e‘tirof etish mumkin. Uning siyosati kamchiliklaridan biri qipchoq harbiy aristokratiyasiga ko‘rsatilgan homiylik bo‘lgan. Qipchoqlar Tekesh rafiqasi xayriohligidan foydalanib davlat ishlariga ko‘proq ta‘sir ko‘rsatishga intilgan. Turkiy „qo‘mondonlar“ning davlat ishlariga o‘zboshimcha aralashuvi keyinchalik Tekesh o‘g‘li Muhammad zamonida Xorazm davlatining parchalanishiga sabab bo‘lgan.

Alovuddin Muhammad (1200-1220) davrida mamlakat hududi yanada kengadi. 1210-yilda Movarounnahrni Qoraxitoylardan tortib oladi. Uning davrida mamlakat qanchalik gullab-yashnamasin, mamlakat ich-ichidan yemirilib borgan. Xatto, sulton saroyida ham ichki nizolar avj olib, ularning boshida Turkon Xotun va qipchoqlar turgan. Sulton saroyidagi bunday nizolardan foydalangan mo‘g‘ullar 1219-1221-yillarda mamlakatning asosiy qismini bosib oladilar. Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi (1220-1231 yy.) 11 yil davomida Hindiston, Eron va Ozarbayjon hududlarida mo‘g‘ullarga qarshi mardonavor kurash olib boradi. 1231-yil avgustda Jaloliddin Manguberdi Ozarbayjonda halok bo‘lgach, 154-yil hukmronlik qilgan Anushteginlar sulolasining hukmronlik davri tugaydi.

Anushteginlar sulolasidan bo‘lgan Xorazmshohlar (1077-1231-yillar): 1. Anushtegin Garchoi 1077-1097 yy. 2. Ekinji ibn Qorachar 1097-yil 3. Qutbiddin Muhammad 1097-1127 yy. 4. Otsiz 1127-1156 yy. 5. Elarslon 1156-1172 yy. 6. Sultonshoh Mahmud 1172-yil 7. Takash 1172-1200 yy. 8. Alovuddin Muhammad 1200-1220 yy. 9. Jaloliddin Manguberdi 1220-1231 yy.

²³ Sh.M.Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom, –T.: “O‘zbekiston”. 2018.

Xorazmshoh Turkmanlarning davlati xaritasi, 1210-yilda Sulton Alovuddin Muhammad davrida.

Keyinchalik Xorazmshohlar davlati Saljuqiylar va G‘uriylar davlatlarini mag‘lub etib, Fors tuproqlaridagi eng qudratli hamda ulkan sarhadlarga ega davlatga aylandi. Hattoki Abbosiylar xalifaligiga ham xavf sola boshladilar. Manbalarga ko‘ra, 13-asr boshlarida Xorazmshohlar davlati Islom olamidagi eng qudratli davlat hisoblangan[1]. Hisob-kitoblarga ko‘ra, davlat hududi 2.3 million kvadrat kilometrdan[2] to 3.6 million kvadrat kilometergacha[3] cho‘zilgan bo‘lib, mazkur ulkan sarhad davlatning tarixdagi buyuk imperiya sifatida shakllanishiga imkon bergan. Saljuqiylardan andoza olib shakllangan bu davlat asosan Oguz va Bijanak turklaridan tarkib topgan ulkan harbiy bo‘linma tomonidan idora etilgan.

11-asr va 12-asrning birinchi yarmida Xorazm saljuqlar davlati (g‘aznaviylar davlati xarobalarida 11-asrda tashkil topgan) tarkibiga kirgan. Xorazmning 11-asrdagi yuksalishi turkiylar sulolasiga mansub xorazmshohlar siyosati bilan uzviy bog‘liq. Mazkur sulolaga saljuq amirining tashtdori Anushtegin asos solgan. Sulton hammomchilari mahkamasining sardori bo‘lgan Anushtegin Garchoi Malikshoh (1072-1092 yy.) saroyida yuksak martabaga erishgan. U rahbarlik qilgan mahkama zimmasiga Xorazmni boshqarish ham yuklangan. 1077-yilda Malikshoh Anushtegin Garchoini Xorazmga noib etib tayinlaydi va Xorazmda Anushteginlar sulolasi hukmronligi boshlanadi. Anushteginlar turkiylar sulolasidan bo‘lib, o‘sha paytda, Osiyoda hukmronlik qilgan uch buyuk sulola: Anushteginlar, Saljuqiylar va G‘aznaviylar bir negizdan kelib chiqqan. 1097-yilda Anushtegin vafot etgach, Xorazm noibi etib Ekinji ibn Qorachar tayinlanadi. Biroq u o‘sha yili noiblikdan chetlatilib, uning o‘rniga Anushteginning o‘g‘li Qutbiddin Muhammad (1097-1127 yy.) qo‘yiladi. Garchi, u "Xorazmshoh" unvonini tiklab, shu nom bilan ulug‘lansa ham Saljuqiylarning sadoqatli noibi bo‘lib qoldi.²⁴

Qayta tiklangan xoramshoh mansabiga sazovor bo‘lgan Anushtegin nabirasi Otsiz Xorazm mustaqilligi yo‘lida astoydil harakat qilgan. Xorazmshoh Otsiz (1127-1156 yy.) saljuq sultoni Sanjarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borgan. U mug‘ombir diplomat va qat’iy sarkarda bo‘lib, mustaqil tashqi siyosat yuritadi. Chunonchi, u o‘z hukmdori Sanjarning ruxsatisiz qipchoqlar va turkmanlarga qarshi urush boshlaydi. 12-asrning boshida O‘rta Osiyoni sharq tomondan yangi istilochilar - qoraxitoylar bosib oladilar. Sulton Sanjar o‘zining yaqin qarindoshi bo‘lgan samarqandlik qoraxoniylar xoni Mahmudga yordamga keladi. Qoraxitoylarga qarshi Samarqand yaqinida bo‘lib o‘tgan jang Sanjarning to‘la mag‘lubiyati bilan yakunlanadi. Xorazmshoh Otsiz Sanjarning mag‘lubiyatidan ustalik bilan foydalanib 1141 yili Marvni ishg‘ol etadi, 1142 yili esa Nishopurga yaqinlashadi. 1156 yili Otsiz vafot etadi va uning o‘g‘li Elarslon (1156-1172 yy.) xorazmiylar davlatini mustahkamlashni davom ettirib, Dixistonni tevarak-atrofdagi yerlarga qo‘shib oladi. Elarslon o‘ziga voris etib o‘g‘li Sultonshoh Mahmudni (1172-1193) tayinlaydi, biroq to‘ng‘ich o‘g‘li Takash ukasi hokimyatini tan olmay, unga qarshi kurash boshlaydi. Natijada toju-taxt uchun kurash boshlanadi, bu kurash 21 yil davom etib, unda Takash g‘olib keladi. Uning o‘g‘li Tekesh (1172-1200 yy.) 1187 yili Nishopurni, 1192 yili esa Marvni bosib oladi. 1194 yili g‘arbiy

²⁴ Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. –T.: “O‘zbekiston”, 2006.

saljuqlar sultonini qaqshatqich mag‘lubiyatga uchratib, Eronning butun sharqiy qismini egallab oladi. 1195 yili Tekesh abbosiy xalifa qo‘shinini tor-mor qilib, Iroqqa bostirib kiradi. O‘z mamlakati hududlarini ikki karra kengaytirgan va qudratli davlat barpo etgan xorazmshoh Tekeshni Xorazmning eng iste‘dodli hukmdori deb e‘tirof etish mumkin. Uning siyosati kamchiliklaridan biri qipchoq harbiy aristokratiyasiga ko‘rsatilgan homiylik bo‘lgan. Qipchoqlar Tekesh rafiqasi xayriohligidan foydalanib davlat ishlariga ko‘proq ta‘sir ko‘rsatishga intilgan. Turkiy "qo‘mondonlar"ning davlat ishlariga o‘zboshimcha aralashuvi keyinchalik Tekesh o‘g‘li Muhammad zamonida Xorazm davlatining parchalanishiga sabab bo‘lgan. Alovuddin Muhammad (1200-1220) davrida mamlakat hududi yanada kengadi. 1210-yilda Movarounnahrni Qoraxitoylardan toritib oladi. Uning davrida mamlakat qanchalik gullab-yashnamasin, mamlakat ich-ichidan yemirilib borgan. Xatto, sulton saroyida ham ichki nizolar avj olib, ularning boshida Turkonu Xotun va qipchoqlar turgan. Sulton saroyidagi bunday nizolardan foydalangan mo‘g‘ullar 1219-1221-yillarda mamlakatning asosiy qismini bosib oladilar. Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi (1220-1231 yy.) 11 yil davomida Hindiston, Eron va Ozarbayjon hududlarida mo‘g‘ullarga qarshi mardonavor kurash olib boradi. 1231-yil avgustda Jaloliddin Manguberdi Ozarbayjonda halok bo‘lgach, 154-yil hukmronlik qilgan Anushteginlar sulolasining hukmronlik davri tugaydi. Anushteginlar sulolasidan bo‘lgan Xorazmshohlar (1077-1231-yillar):

1. Anushtegin Garchoi 1077-1097 yy.
2. Ekinji ibn Qorachar 1097-y.
3. Qutbiddin Muhammad 1097-1127 yy.
4. Otsiz 1127-1156 yy.
5. Elarslon 1156-1172 yy.
6. Sultonshoh Mahmud 1172-y.
7. Takash 1172-1200 yy.
8. Alovuddin Muhammad 1200-1220 yy.
9. Jaloliddin Manguberdi 1220-1231 yy.

Xorazmshohlar davrida ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli.²⁵

Xorazmshohlar davlati markazi -Gurganj yirik savdo va madaniy markazga aylangan. Shuningdek, Xazarasp, Kat, Xushmusan, Darg‘on, Savag‘on, Mang‘ishloq, Nuzkat kabi shaxarlari obod shaharlar qatoriga kirgan. Xorazm davlati qadimdan sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik, chorvachilik, xunarmandchilik rivojlangan xududlardan biri bo‘lgan. Qadimgi davrlarda bu xududning rivojlanishining asosiy omillardan biri buyuk ipak yo‘lining bu xududdan o‘tganligi edi. Xorazmshohlar davlati davrida -yirik siyosiy birlashmaning vujudga kelishi bilan davlatning siyosiy mavqei oshdi. Bu esa o‘z navbatida hunarmandchilikning, savdoning rivojlanishiga, shaharlarning yuksalishiga zamin yaratdi. Ulkan mintaqada siyosiy yaxlitlik va barqarorlikka erishilishi natijasid ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishida ham ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Arxeologik izlanishlar, yozma manbalar guvohligiga ko‘ra sun‘iy sug‘orishga katta e‘tibor berilib, vohalar imkonidan iloji boricha keng foydalanishga harakat qilingan. Natijada dehqonchilikni rivojlanishida

²⁵ Muxtarov T.I. (2020). O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo‘li// Falsafa va hayot № 3.-B.45-60

uzilish bo‘lmagan. Turli hil qishloq ho‘jalik mahsulotlari yetishtirilgan. Ulardan yuqori hosil olingan. Shaharlarda hayot qaynab, savdo-sotiq, hunarmandchilik rivojlangan. Mamlakatda ishlab chiqarilgan turli xildagi gazlamalar, zargarlik buyumlari, kiyim- kechaklar, gilam, poyondozi, teri, jun, yog‘-moy, sovun, qurol-aslaha, egar-jabdug‘lar, ho‘l meva, quruq meva, ipakliklar, javohirlar va boshqa ko‘plab mahsulotlar ham ichki bozorda, ham tashqi bozorda xaridorgir edi. Albatta, bunda tegishli davlat idoralarining hissi ham katta bo‘lgan. Chunonchi, doim bo‘lganidek muxtasiblar bozorlardagi narx-navo, mahsulotlarning sifati, toshu tarozuning ahvolidan xabardor bo‘lishni to‘xtatmaganlar. Karvon yo‘llarida to‘xtash joylari, suv omborlari, havzalari qurilgan yo‘llari ta‘mirlangan, katta karvonlarni qo‘riqlab borishga hatto sultonning shaxsiy pahlavonlari ham jalb etilgan.

Xorazmshohlar davlatida raiyat, ya‘ni oddiy aholining ijtimoiy turmush tarzi yashi bo‘lishi uchun hukmdorlar alohida ahamiyat berganlar. Jumladan, Xorazmshoh Takash o‘z farmonlaridan birida raiyatga nisbatan adolatli bo‘lishga, dehqonlarning manfaatini himoyaga qilishga, soliqlarni olish jarayonida qonunlarga to‘liq rioya etishga amr qilgan. Jaloliddin Xorazmshoh ham urush natijasida qiyin ahvolga tushib qolgan aholini soliqlardan ozod etgan. Xorazmshohlar davrida dehqonlarning turmush tarzi ancha yuqori bo‘lgan. Xukmdorlar va iqto egalari ham dehqonchilikdan yuqori hosil olish uchun dehqonchilikka ko‘p mablag‘ sarflab, qishloqning iqtisodiyotini qo‘tarishga harakat qilganlar. Takashning munshiysi - shaxsiy kotibi Muxammad Bag‘dodiy At-tasviri ila-t-tarassul (Muxim nomalar bitish yo‘li - yo‘riqlari) asarida o‘sha davrdagi axvolni yozib qoldirgan.

Bu davrdagi voqea-hodisalarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan va to‘g‘ri xolis xulosalar chiqarishi mumkin bo‘lgan inson Shahobiddin An-Nasaviy Sulton Muhammadning hukmronligini yuksak baholab shunday deydi: «Uning amalga oshirgan ishlari nihoyatda ulug‘ edi, otasi unga Xuroson va Xorazm hukmdorligini meros qoldirdi, u bunga Iroq va Mozandaronni ham birlashtirdi. Shu bilan birga, qo‘l ostiga Kirmon, Kesh, Seyiston, G‘ur, O‘azni, Bomiyon mamlakatlarini, Hindistonning vodiylariga qadar maskanlarni qo‘shib oldi. Bu ishlarning hammasini qilichlar qindan chiqarilmasdan, hatto qinlar yelkalarga osilmasdan amalga oshirildi, bu mamlakatlarni ortiqcha kuchsiz, kurashsiz, zo‘ravonlik va vayronagarchiliksiz, faqat tahdid va qo‘rqitish bilan bosib oldi. U o‘z qo‘l ostiga to‘rt yuzga yaqin shaharlarni birlashtirdi. Boshqa birov bo‘lganda bu darajada muvaffaqiyatga erishishi qiyin kechardi, u esa bir og‘iz so‘z bilan qo‘l ostiga shuncha miqdordagi mulkni to‘pladi». Anushteginlar davrida madrasalar barpo etish, kutubxonalar ochish, ularni kitoblar bilan to‘ldirish, iste‘dod egalarining boshini silash, asrab-avaylash odati saqlanibgina qolmay, yanada rivoj topdi. Ziyo maskani bo‘lmish kutubxonalar faoliyatiga katta e‘tibor berilgan. Masalan, Buxoro viloyatidagi shaharlardan birida fuqarolar, ya‘ni umumiy kutubxona mavjud bo‘lib, unda saqlanadigan qo‘lyozma asarlar g‘oyatda noyob hisoblangan. Xuddi shunday kutubxonalar o‘lkaning boshqa yerlarida ham, masalan, Xorazmda bo‘lgani ma‘lum. Madrasalarga kelsak, manbalarda yozilishicha, bunday bilim maskanlari saltanat markazi Xorazmdan tashqari Nishopur, Isfahon va boshqa shaharlarda ham qad ko‘targan. Ularda o‘qish jarayoniga juda katta mas‘uliyat bilan qaralganini shundan ham bilib olsa bo‘ladiki, Madrasa rahbari va mudarrislar oliy hukmdor yo uning joylardagi noibining maxsus buyrug‘i bilan tayinlanganlar.

Chunki har qanday jamiyat, u qanchalik turli imkoniyatlarga ega bo‘lmasin, agar shu imkoniyatlarni yuzaga chiqarishga qodir mutaxassislar bo‘lmas ekan, ular og‘izda qolaveradi. Mutaxassislar esa tarbiyalanadi, parvarish etiladi. Xorazmshohlardan Otsiz, Takashlarning shu ma‘nodagi buyruqlarini tahlil qilarkanmiz, ular mazkur haqiqatni juda to‘g‘ri anglaganliklari namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham ular ta‘lim va tarbiya, fan sohalariga mutasaddilarning ilmi, iymonli, hurmatli, halol bo‘lishlariga katta e‘tibor bilan qaraganlar. Mazkur siyosat o‘z mevasini ham bergan. Bahoviddin Marvaziy, Abu Ali Hasan Buxoriy, Zahiriddin G‘aznaviy, Ismoil Jurjoni, Faxriddin Roziy, Maxmud Zamahshariy, Abulfath Xorazmiy, Abulqodir Jurjoni, Sirojiddin Xorazmiy, Rashididdin Votvot, Sayfi Isfarangiy, Ziyxo Xo‘jandiy, Najmiddin Kubro, Majiddin Xorazmiy kabi o‘nlab matematiklar, yulduzshunoslar, tabiblar, tarixchilar, shoirlar, faylasuflar, adiblar, tilshunoslar, mutasavvuf olimlar shular jumlasidandir. Albatga, biz va hamkasblarimiz mazkur ro‘yxatni yanada davom ettirib, ularning har biri haqida ko‘plab qog‘oz qoralashimiz mumkin. Ammo bu alohida tadqiqot uchun mavzu bo‘lgani sababli quyida ularning ba‘zi birlarining e‘tiborga molik jihatlari diqqatni jalb etmoqchimiz. Qutbiddin Muhammad va Otsiz zamonlarida mashhur tibbiyot olimi Sayyid Ismoil Jurjoni faoliyat ko‘rsatib, bir qator qimmatli asarlar yaratgan. Ular orasida Qutbiddin Muhammadga bag‘ishlangan «Zahirayi Xorazmshohiy» asari alohida o‘rin egallaydi. Bu asarning qimmatini shu qadar bo‘lganki, Jolinus (Galen), Muhammad Zakariyo, Ibn Sino, Abu Sahl Masihiy asarlari bilan bir qatorda tibbiyot sohasidagi eng muhim asar va manbalardan biri sifatida qabul qilingan.²⁶

O‘n ikki jildidan iborat bu asar tibbiyotning barcha yo‘nalishlari, tashrih, oddiy va murakkab dorilar haqidagi tadqiqotlarni o‘z ichiga olgan. U arab va turk tillariga tarjima qilingan. Ismoil Jurjoniyaning eng katta xizmatlaridan biri shundaki, u Ibn Sinodan keyin tibbiyot sohasidagi barcha yo‘nalishlarni yangi tadqiqotlar asosida qaytadan bayon qilib chiqqan.²⁷ Olim faoliyatining biz uchun qadrlil tomonlaridan yana biri shundaki, Ibn Sino yurtimizdan «bir chiqib» qolgan yagona buyuk tibbiyot olimi emas, balki bu soha undan keyin ham bizda yuksak darajada taraqqiy qilib kelganligi ma‘lum bo‘ladi. Zero, o‘tmishdagi olimu fozillarimiz ilmu tafakkurga doimo sodiqpik bilan xizmat qilib kelganlar. Ularning sodiqlik to‘g‘risidagi tushunchalari vatanga nisbatan ham yuksak darajada edi. Buni biz mashhur mutasavvuf olim va shoir Najmiddin Kubro misolida ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Ulkan hududda markazlashgan davlatning tashkil topganligi turli xalqlar o‘rtasidagi savdo-sotiq va madaniy aloqalarni nihoyatda rivojlanishiga olib keldi, o‘zaro urushlarga chek qo‘yilib, xalqning tinchligi ta‘minlandi. Mirzo Ulug‘bek bu holatni shunday ifodalaydi: «Mo‘tabar tarixlarda bitilmish va zikr etilmishkim, Sulton Muhammad Xorazmshoh zamonida Eron va Turon davlati bag‘oyat osoyishtalikda va solim edi. Chunonchi, agar ko‘zi ojiz kampir qizil oltin to‘la tashtni boshiga qo‘yib Mashriqdan Mag‘ribga jo‘naydigan bo‘lsa, biror jonzot unga daxl qilmagan. Shoh shu darajada kuchaydiki, mamlakatda birorta ham o‘g‘ri qolmadi».

²⁶ B.T Xaitov. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda axborot xurujlaridan himoyalash. Academic Research in Educational Sciences, 2(10) (2021), 257-263. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-10-257-263>.

²⁷ Muxtarov T.I. (2020). O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo‘li // Falsafa va hayot № 3. -B.45-60

Mo‘g‘ullar bosqini arafasida Xorazmda bo‘lgan arab sayyohi va geografi Ibn Yoqut ham Xorazmning yuksak darajada taraqqiy etgan o‘lka ekanligini qayd qilib o‘tgan edi. G‘arb, xususan, rus tarixchilari Sulton Alouddin Muhammad hukmronligi davrini o‘ziga xos «Renessans» davri, ya‘ni «Xorazm Uyg‘onish» davri deb ataganliklarini hisobga olsak, uning naqadar buyuk hukmdor bo‘lganligini ko‘ramiz. Sulton Alouddin Muhammadning yuksak madaniyatli va ma‘rifatli shaxs bo‘lganligi shubhasizdir.²⁸ U yoshligidanoq saljuqiylar davlati poytaxti Marvda, shuningdek, o‘sha davrda SHarqning eng go‘zal va katta shahari hisoblangan xorazmshohlar poytaxti Gurganjda zamonasining buyuk allomalaridan yetarli bilim olgan. Xorazmshohlar davri fan va madaniyat yuksalgan, chunki Xorazm an‘anaviy ravishda fan va madaniyat beshigi bo‘lib kelgan. Shuningdek, Xorazmshohlar davrida iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiy etgan va davlat arboblari ham ilm-ma‘rifatli bo‘lgan. Xorazmshohlar zamonida ayni shu ikki omil o‘zaro uyg‘unlashgan edi. Xorazmshohlarning barchasi chuqur bilim egasi edilar. Ular ham dunyoviy, ham diniy bilimlarni egallaganlar. Masalan, Otsiz qasidalar, ruboiylar yozgan, ko‘plab nazm namunalarini yoddan aytib bera olgan, san‘at va ilmga katta ixlos bilan qaragan. Ruboiylaridan birida u shunday deydi: «Dunyo beliga urilgan tamg‘a mening farmonimdir, falak qulog‘idagi halqa mening paymonimdir. Bugun shunday saltanatni qo‘lda tutsamda, do‘st rizoligiga erishish mening iymonimdir». Takash, El- Arslon, Sulton Muhammad va xorazmshohlarning boshqa namoyandalari ham keng bilimli, she‘r va san‘atni qadrdlovchi bo‘lganlar, nazmda ijod qilganlar. Takash esa ayniqsa ud chalishni o‘rniga qo‘ygan.

Ulug‘ qobiliyatli sarkarda, mohir diplomat va ma‘rifatparvar hukmdor bo‘lmaganida, Sulton Alouddin Muhammad bu qadar yuksaklikka ko‘tarilmagan, o‘zi esa, buyuk hukmdorga, Markaziy Osiyo, jumladan Xorazm va Movarounnahr yuksak fan va madaniyat markaziga aylanmagan bo‘lard. Bularning barchasi Sulton Alouddin Muhammadning adolatli hukmdor hamda fan va madaniyat homiysi bo‘lganligidan dalolat beradi. Uning vaziri Shahobiddin Xivaqiy o‘z davrining eng bilimli, ma‘rifatli davlat arboblariidan bo‘lgan. Islom dini qonunlarini mukammal bilgan. Davlat boshqaruvining barcha masalalarida o‘ziga xos mustaqil fikrga ega bo‘lib, doim adolat yuzasidan ish ko‘rgan. An-Nasaviyning yozishicha, Xorazmshoh Sulton Muhammad barcha ishlarda dono vaziri Shaxobiddin Xivaqiy bilan maslahatlashgan va uning fikrlariga quloq solgan. Mo‘g‘ullar hujumi jarayonidagi voqealar bu ulkan saltanatning siyosiy asoslari ancha bo‘sh ekanligini ko‘rsatdi. Mamlakatdagi turli siyosiy kuchlar o‘rtasidagi hokimiyat uchun kurash, xalq millat uchun og‘ir kunlarda dushmanga qarshi yakdil bo‘lib birlasha olmaslik, aksincha, o‘zaro nizo, fisqu-fasodlarning yanada kuchayishi, oxir-oqibat saltanatni halokatga olib keldi. Zamondoshlarini va keyingi avlod vakillarini hayron qoldirib, juda qisqa muddatda (uch yil davomida) mag‘lub bo‘lgan bu ulkan saltanatning va uning hukmdori Xorazmshoh Sulton Muhammadning achchiq taqdiri hozirgi avlod uchun achchiq saboq bo‘lmog‘i lozim. Zero, tarix saboq olish uchun manbadir.

Xulosa

Mazkur mavzuni o‘rganish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo‘lanilishi mumkin. Voqea – hodisa, tasavvur, tushunchalar, qonuniyatlar, ijtimoiy xayot, bahs, munozara, tarixiy taraqqiyot, ijtimoiy

²⁸ Buniyodov 3., Anushtegin xorazmshohlar davlati (1097-1231), T., 1998.

rivojlanish tushunchalarini hosil qilish. Mavzuni o'rganishda tarixiy dalillar haqida aniq obrazlarni va tasavvurlarni yaratishdan boshlanadi. Tarixiy tasavvur bilan tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog'langan, o'quvchilarda hodisalar, tarixiy jarayonlar haqida yetarli darajada to'liq va aniq tasavvurlar mavjud bo'lgandagina tushunchalar hosil bo'ladi. Tarix o'qitish jarayonida o'quvchilarning tasavvurlari chuqurlashib borishi natijasida, tushunchalarni shakllantirish uchun zamin yaratiladi. Tushunchalar o'z navbatida tasavvurlarni mazmunan boyitishga yordam beradi. Tasavvur va tushunchalarni hosil qilish metodik usullari ham ko'pchilik hollarda bir – biriga o'xshab ketadi.²⁹

Mavzuni o'qitishda o'quvchilarning ko'z o'ngida o'tmishdagi ijtimoiy hayotning yaxshi manzaralarini shakllantirishda jonli va yorqin obrazlardan foydalanishning ahamiyati kattadir. Shunga erishish kerakki, bayon qilingan har bir tarixiy dalil, geografik nom va shaxs faoliyati obrazli bo'lishi lozim. Obrazlilik o'quvchilarni tarixdan oladigan bilimlarini ilmiy puxta bo'lishini zarur sharoitlaridan biri tarixiy voqealarni modernizatsiya qilishning oldini olish tarixga qiziqish uygotish hamda tarixiy dalillarni tahlil qilish va umumlashtirish uchun zarur bo'lgan shart – sharoitlarni yaratishning muhim vositasidir. Tarixiy dalillarni tahlil qilishga bir namuna keltiramiz:

Taraqqiyotning tarixiy jarayoni tushuntirilar ekan, ular tasavvurida ibtidoiy odamlar hayoti to'g'risida ko'rsatmali quolsiz tushuncha hosil bo'lmaydi. Insoniyat taraqqiyotining ibtidoiy davrini faqat ushbu davr yodgorliklarini ko'rsatish yoki rangli rasmlardan foydalanish orqali tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada O'zbekiston tarixi muzeyi yoki boshqa shahar va tuman o'lkashunoslik muzeylariga ekskursiya uyushtirish, o'quvchilarning haqiqatni aniq va to'liq to'g'ri fikrlashlarini ta'minlaydi. O'quvchilar tarix muzeyida o'z ko'zlari bilan ko'rgan qadimgi odamlar hayoti va ularning ish qurollarini bir umrga eslarida saqlab qoladilar. Muzeidan qaytgach o'qituvchi, o'quvchilarga referat yozib kelishlarini topshiradi.

Tarixiy tasavvurlarni shakllantirishda tarixiy hodisalar obrazlarini o'quvchilar faol suratda idrok etishga qaratilgan usullardan foydalaniladi. O'qituvchi hikoyasining mazmunan ko'rgazmali va obrazli bo'lishi darslik matnidagi tarixiy hujjatlardagi voqea va tasviriy rasmlar, badiiy adabiyot asarlari o'quvchilarda tarixiy tasavvurlarni shakllantirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi materialni bayon qilayotganda tarixiy hujjatlardan, ilmiy – ommabop va badiiy adabiyotlardan olingan yorqin tafsilotlarga hamda o'quvchilardagi mavjud tasavvurlarga suyangan holda ish tutadi. O'quvchilarning tarixga qiziqishining ortishi o'quvchilarda aniq va puxta tasavvur hosil qilish uchun o'qituvchi bayonining jonli va emosional bo'lishining o'zi kifoya qilmaydi, O'qituvchi o'quvchilarning faol fikrlashini tashkil qilishi va unga rahbarlik qilishi lozim.

²⁹

B.T Xaitov. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda axborot xurujlaridan himoyalash. Academic Research in Educational Sciences, 2(10) (2021), 257-263. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-10-257-263>.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-tom, –T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Sh.M.Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom, –T.: “O‘zbekiston”. 2018.
3. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2016.
4. Q.Usmonov va b. O‘zbekiston tarixi. –T.: “Iqtisod-Moliya”, 2016.
5. M.Rahimov, A.Zamonov. O‘zbekiston tarixi. –T.: “Fan”, 2019.
6. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. –T.: “O‘zbekiston”, 2006.
7. B.T Xaitov. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda axborot xurujlaridan himoyalash. Academic Research in Educational Sciences, 2(10) (2021), 257-263. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-10-257-263>.
8. Buniyodov 3., Anushtegin xorazmshohlar davlati (1097-1231), T., 1998.
9. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy, Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti, T., 1999.
10. Eshov B. (2019). O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi .Birinchi kitob. Darslik. – Toshkent.: “Yangi asr avlodi”, B.309.
11. Muxtarov T.I. (2020). O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo‘li// Falsafa va hayot № 3.-B.45-60